

ARTUR SHOPENGAUER: G'OYA HAQIDAGI TA'LIMOT VA NATURFALSAFA

Sadullayev Sardor Saydiganiyevich, O'zMU mustaqil izlanuvchisi

ARTHUR SCHOPENHAUER: THE DOCTRINE OF IDEAS AND PHILOSOPHY OF NATURE

Sadullayev Sardor Saidiganievich, independent researcher at the National University of Uzbekistan

АРТУР ШОПЕНГАУЭР: УЧЕНИЕ ИДЕИ И НАТУРФИЛОСОФИЯ

Садуллаев Сардор Сайдиганиевич, независимый исследователь Национального университета Узбекистана

Annotatsiya: Shopengauerning g'oyalar ta'lomi va naturfalsafasi uning metafizik tizimining muhim qismini tashkil qiladi. Unda tabiat makon-zamon shakllari orqali namoyon bo'ladigan ibtidoiy kuchlar sifatida tasavvur qilinadi. G'oyalar esa makon va zamondan tashqaridagi "abadiy nigoh" sifatida tabiatning asosiy kuchlarini ifoda etadi. Shopengauerga ko'ra, dunyo "olamiy iroda"ning tajallisi bo'lib, unda mavjudlik kurashi va iztirob ontologik asosga ega. Inson esa o'z intellektual qobiliyati orqali bu irodani inkor qilish va erkinlikka erishish imkoniga ega. Ushbu ta'lomit estetika, ontologiya va tabiat falsafasining murakkab uyg'unligini ko'rsatadi.

Kalit tushunchalar: g'oyalar, olamiy iroda, makon va zamon, tabiat, hayotiy kuch, iztirob, mavjudlik uchun kurash, intellekt, dunyoning abadiy nigohi, erkinlik.

Annotation: Schopenhauer's doctrine of ideas and philosophy of nature constitutes an important part of his metaphysical system. In this system, nature is conceived as primordial forces manifesting through the forms of space and time. Ideas, in turn, represent the fundamental forces of nature as the "eternal gaze" that exists beyond space and time. According to Schopenhauer, the world is a manifestation of the "world will", in which the struggle for existence and suffering have an ontological foundation. The human being, endowed with intellectual capacity, is able to negate this will and attain freedom. This doctrine illustrates the complex unity of aesthetics, ontology, and the philosophy of nature.

Keywords: ideas, world will, space and time, nature, vital force, suffering, struggle for existence, intellect, eternal gaze of the world, freedom.

Аннотация: Учение Шопенгауэра о идеях и натурфилософии составляет важную часть его метафизической системы. В ней природа представляется как первичные силы, проявляющиеся через формы пространства и времени. Идеи же выражают основные силы природы как «вечный взор», находящийся вне пространства и времени. Согласно Шопенгауэру, мир – это проявление «мировой воли», в котором борьба за существование и страдание имеют онтологическую основу. Человек, обладая интеллектуальной способностью, способен отвергнуть эту волю и достичь свободы. Данное учение демонстрирует сложное единство эстетики, онтологии и философии природы.

Ключевые понятия: идеи, мировая воля, пространство и время, природа, жизненная сила, страдание, борьба за существование, интеллект, вечный взор мира, свобода.



<https://orcid.org/0009-0009-7680-7576>

e-mail:
manaviy@rambler.ru

KIRISH. Artur Shopengauerning falsafasi dunyonini tushunish va inson mavjudligining mohiyatini anglashda o‘ziga xos yondashuvni taklif etadi. Uning g‘oyalar ta’limoti va naturfalsafasi metafizikasining asosiy ustunlaridan biri bo‘lib, tabiat, makon, zamon va iroda konsepsiyanini chuqur tahlil qiladi. Shopengauer dunyonini “olamiy iroda”ning namoyoni sifatida ko‘radi, bu iroda g‘oyalar orqali makon va zamonda ko‘payib, turli shakllarda zohir bo‘ladi. Ushbu ta’limotda tabiatning kuchlari, insonning iztirobi va erkinlikka intilish kabi mavzular muhim o‘rin tutadi. Ushbu matnda Shopengauerning g‘oyalar haqidagi ta’limoti va uning naturfalsafadagi o‘rni mufassal yoritilgan bo‘lib, u falsafa va ontologiyaga qiziquvchilar uchun muhim manbadir.

TADQIQOT METOLOGIYASI.

Maqolada tarixiy-tahliliy, komparativistik, mantiqiy-tahliliy, falsafiy-ontologik, gnoseologik, aksilogik (qadriyatli) tahlil, axloqiy-etik tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Brayan Magi[1] Artur Shopengauerning falsafasining to‘liq va tizimli tahlilini taqdim etadi. Shopengauerning iroda, tasavvur, estetika va naturfalsafaga oid ta’limotlarini batafsil ko‘rib chiqadi. Magi Shopengauerning Immanuil Kant va Platon bilan falsafiy bog‘liqligini, shuningdek, uning XIX asr romantizmi va zamonaviy falsafa, san’atga (ayniqsa, musiqa va adabiyotga) ta’sirini muhokama qiladi. Rudiger Safranski[2] Artur Shopengauerning falsafasi va uning hayotini tarixiy va biografik kontekstda ko‘rib chiqadi. Shopengauerning falsafiy ta’limotlari, xususan, iroda, tasavvur va naturfalsafaga oid g‘oyalarini uning davri (nemis romantizmi, Kant va Geigel falsafasi) bilan bog‘lab talqin qiladi. Safranski Shopengauerning g‘oyalar va naturfalsafaga oid ta’limotlarini uning shaxsiy tajribalari va falsafiy muhiti nuqtayi nazaridan yoritadi. Kristofer Janavey [3] Artur Shopengauer falsafasining qisqacha, ammo mukammal tahlilini taqdim etadi. Iroda, tasavvur, estetika va naturfalsafaga oid asosiy g‘oyalarini sodda va tushunarli tilda bayon qiladi. Janavey Shopengauerning g‘oyalarining san’at bilan bog‘liqligi va tabiatni iroda prizmasi orqali talqin qilishini alohida ta’kidlaydi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR. G‘oyalar haqidagi ta’limot Artur Shopengauer metafizikasining asosiy qismlaridan birini tashkil

qiladi. G‘oyalar unda estetika va tabiat falsafasida keng qo‘llaniladi. Tabiat makon-zamoniy obyektlarning qonun yaratuvchi mavjudligidir. Lekin bu obyektlar turli asoslidir. Ular o‘zining har xilligi bilan hayratga soladi. Ularning manbalari haqida o‘ylab Shopengauer shunday xulosaga keladi, makon va zamon ularni “ko‘paytiruvchi” asos rolini o‘ynaydi. Aslida, bir sifatli narsalar makon va zamonning turli shakllarida qayta-qayta namoyon bo‘ladi.

Lekin tabiatda sifatiy o‘zgarishlar ham mavjud. Ularning tashkiliy qismlarini turli tirik organizmlar va noorganik moddalar tashkil qiladi. Noorganik moddalar shaxsiylik xususiyatlaridan mosuvodir, lekin ularda tabiiy kuchlarning asosi namoyon bo‘ladi. Shunday qilib, Shopengauerning fikriga ko‘ra, makon va zamon hissiyotning aprior shakllarining natijasi sifatida tabiatni ibtidoviy kuchi ta’sirida bosqichma-bosqich paydo bo‘ladi. Ularning asosida tortilish va itarilish aloqalari yotadi. Kimyoviy potensiyalar “hayotiy kuchning” fundamental rolini o‘ynaydi. Hayotiy kuch esa – o‘z-o‘zicha mavhumlikdir. Ularning muayyan xususiyati voqelik kasb etadi, ya’ni ularga hayvonot olamidagi biologik turlar hamda insoniy individlar ham kiradi. Bu fikrlarni asoslash uchun Shopengauerga tabiiy kuchlarning ontologik negizini topish talab qilinardi. Xuddi shunda unga g‘oyalar ta’limoti asqotadi.

Tabiatning har bir asosiy kuchiga muayyan “aflatuncha g‘oya” namunasiga mos keladi, ular qandaydir subyekt tasavvurida makon va zamondan tashqarida mavjud. Shopengauer bu tasavvurni “dunyoning abadiy nigohi”, deb ataydi. Albatta, “dunyoning abadiy nigohi” cheklangan subyekt bilan aynan mos kelmaydi. Subyekt dunyonni makon va zamon orqali tasavvur qiladi. Subyekt bilan g‘oyalar o‘rtasida qandaydir umumiylilik bor: ular mushohada qilinuvchi predmet bo‘ladimi, g‘oya yoki makon-zamon hodisasi bo‘ladimi, o‘z-o‘zidan mavjud bo‘la olmaydi, subyektga bog‘liq bo‘ladi. Ular mustaqil mohiyat sifatida haqiqiy substansiya bo‘la olmaydi. Shopengauerning fikriga ko‘ra, bor mavjud dunyo sarobdan iborat, uzundan-uzoq tushga o‘xshaydi. Dunyoning abadiy nigohi, deb yozadi Shopengauer, “yagona mavjudlik, g‘aroyib tushda namoyon bo‘ladi, bu tushni hamma ishtirokchilar birdek ko‘radi”[4.165].

“Olamiy ruh” tushida Irodaning bevosita tajallisi orqali g‘oyalar dunyosida tartib va uyg‘unlik hukm suradi. O‘tkinchi subyektlarning tushi voqeiy mavjudlik deb ataladi, u dahshatlidir. Hayot Shopengauerning ta‘kidiga ko‘ra, azoblarining o‘rin almashinishidan iborat. Darhaqiqat, ko‘proq intellektga ega bo‘lganlar azob chekadilar. Lekin iztirob butun mavjudotni qamrab oladi, bu uning ontologik sababidir. Mazkur sabab makon va zamonning “yakkalashish tamoyiliga” asoslanadi. Makon individlarning cheksiz ko‘payishiga sharoit yaratib beradi. Har bir individ u yoki bu abadiy g‘oyaga mos keladi. Lekin g‘oyalar ko‘p, bunday sharoitda materiyaning yetishmasligi masalasi ko‘ndalang bo‘ladi, ular o‘rtasida kurash sodir bo‘ladi. Mavjudlik uchun kurash sodda shakllarni yuksakroq shakllar orqali siqib chiqarish sifatida davom etadi. Qator tabiiy inqiloblar sodir bo‘ladi. Dastlab bunda hayotning namoyonini kuzatish mumkin, so‘ngra yuqori darajadagi olamiy Irodaning tajallisi amalga oshadi (uning yo‘nalishiga ko‘ra Hayot irodasi deb atash mumkin) va yuksak darajada inson paydo bo‘ladi.

Inson qudrati – uning intellektidadir. Intellekt umuman irodaviy intilishlar xizmatida bo‘ladi. U qanchalik qudratli bo‘lsa, unga ega bo‘lgan mavjudot, tiriklik uchun shuncha qattiq kurashadi. Boshqa tomondan intellektning rivojlanganligi subyektning azobli, halokatli hissiyotiga teng darajada qarama-qarshidir. Demak, hamma mavjudotlar ichidagi eng hayotga chanqog‘i bu – insondir. U o‘z mavjudligining zahmatini to‘laqonli anglaydi.

Shopengauer buni paradoks deb hisoblamaydi, balki irratsional Irodaga cho‘mgan olamning qonuniyatli oqibatidir. Bunday iroda iztirobni tug‘dirsa olmaydi, uning mohiyati yuqori darajadagi ijod mahsuli bo‘lgan insonda namoyon bo‘ladi. Shopengauer insonni aqli mavjudot sifatida o‘z iztiroblarini kamaytira olish qobiliyatiga egaligini tushunadi. Bu maqsadga yetishning bir yo‘li davlatning kelib chiqishi, moddiy va huquqiy madaniyatning rivojidir. Shopengauer ishlab chiqarish va boshqa madaniy omillarning rivoji xulqning yumshashiga va zo‘ravonlikning kamayishiga olib kelishiga ishonadi.

Lekin inson tabiat umumiy baxtga erishishga to‘sinqlik qiladi. Zero, baxt yoki lazzatni

tanlashga to‘g‘ri keladi. Ular Shopengauerning fikriga ko‘ra, salbiy tushunchalardir. Lazzat iztiroblarning tugashidir, ya’ni inson faqat qandaydir yukdan qutulgan paytidagina baxtni his qiladi. Agar hayotda hech qanday og‘irchilik qolmasa, unda zerikish boshlanadi. Bu esa eng og‘ir tuyg‘udir. Boshqa so‘z bilan aytganda, insonlarni baxtli qilishga intilish doimo mag‘lubiyat bilan tugaydi, chunki u haqiqiy vazifani qorong‘ulashtiradi.

Lekin ana shu haqiqiy vazifa nimadan iborat? Shopengauerning fikriga ko‘ra, Irodani inkoridan iborat. Mavjudotlar ichida faqat inson olamiy Irodaning qo‘lida qo‘g‘irchoqqa aylanmaydi, balki uni o‘ziga qarama-qarshi yo‘naltirishi mumkin. Insonning Irodaga qarshi isyonis tasodif emas. Zotan, Irodaning namoyon bo‘lishi qonuniyatlidir. Lekin Iroda erkin, u o‘zini ham inkor qilishi mumkin. O‘zidan chiqishi uchun u qorong‘u tomonini ko‘rishi kerak. Inson olamiy Irodaning ko‘zgusi rolini o‘ynaydi, va aynan inson orqali Irodaning qisman o‘zini inkor qilishi sodir bo‘ladi. Erkin irodaning yuqori darajadagi obyektivatsiyasi sifatida u (inson) zaruriyat zanjirini uzishga qodir, dunyoda erkinlikni namoyon qiladi. Erkinlik esa deyarlik kam holda uchraydi. Irodadan voz kechish turli shaklda namoyon bo‘ladi. Ulardan biri estetik qabul qilishdir. Ana shu holatdagi inson, vaqtinchalik o‘z intellektini irodaga xizmat qilishidan ozod qiladi, o‘zining individuallashgan makon-zamon chegarasidan chiqib ketadi, narsalarning mohiyatiy shaklini, g‘oyalarini ko‘radi.

XULOSA. Artur Shopengauerning g‘oya va naturfalsafaga oid ta‘limoti uning iroda va tasavvur konsepsiyalariga asoslanadi. U dunyoni metafizik kuch – iroda va uning fenomenal ko‘rinishi – tasavvur sifatida talqin qiladi. G‘oyalar esa san’at va estetikada muhim o‘rin tutadi, tabiat esa irodaning turli shakllari sifatida ko‘rinadi. Uning “Dunyo iroda va tasavvur sifatida” va “Tabiatda iroda to‘g‘risida” asarlari ushbu mavzuni o‘rganish uchun asosiy manbalardir. Ikkinci darajadagi adabiyotlar esa Shopengauerning ta‘limotini zamonaviy kontekstda tushunishga yordam beradi. Ushbu ta‘limotlar falsafa, san’at va ilmnинг uzviji bog‘lanishini ko‘rsatib, muhim falsafiy an‘anaga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Magee, B. (1983). The Philosophy of Schopenhauer. Oxford: Oxford University Press.
2. Safranski, R. (1987). Schopenhauer and the Wild Years of Philosophy (E. Osers, Trans.). Cambridge, MA: Harvard University Press.
3. Janaway, C. (2002). Schopenhauer: A Very Short Introduction. Oxford: Oxford University Press.
4. Шопенгауэр А. Сочинения: В 6 т. – Т. 4. – М.: Инфра, 1999-2001.
5. Copleston F.A. History of Philosophy // Vol. 7. Modern Philosophy From the Post-Kantian Idealists to Marx, Kierkegaard, and Nietzsche. - New York-London-Toronto-Sydney Auckland, 2004.
6. Шопенгауэр А. Сочинения: В 6 т. – Т. 1. – М.: Инфра, 1999-2001.
7. Шопенгауэр А. Сочинения: В 6 т. – Т. 5. – М.: Инфра, 1999-2001.
8. Шопенгауэр А. Мир как воля и представление. – М.: Эксмо, 2006.
9. Кант И. Критика чистого разума. – Тошкент: Фан, 2004. – 512 б.
10. Руссо Ж.Ж. Инсон табиати ва тенглик хақида. – Тошкент: Университет, 2003.
11. Ницше Ф. Воля к власти. – М.: ACT, 2010.
12. Соловьев В.С. Основы философии морали. – Санкт-Петербург: Лань, 2002.
13. Буддизм асослари ва фалсафаси / Тахрир: Рахимов Х. – Тошкент: Ўзбекистон, 2015.
14. Фалсафа тарихи / Тахрир: Комилов Н. – Тошкент: Фан, 2010. – 624 б.
15. Этика ва ахлоқ назарияси асослари / Тахрир: Сафаров Б. – Тошкент: Иқтисод-Молия, 2012.
16. Ruzmatova, G. (2019). Eastern melodies in the text of Plato // International Journal of Recent Technology and Engineering. Vol. 8, Issue-2S6, July, – P. 444-448. IJRTE. ISSN: 2277-3878.
17. Ruzmatova,G. (2020). Comparativist analysis of Representations about Will in View of Friedrich Nitzsche and Jalaliddin Rumi // International Journal of Psychosocial Rehabilitation, Vol. 24, Issue 04, 2020. ISSN: 1475-7192. –P. 3215-3227.
18. Рузматова, Г. (2014). Рухият таҳлили фалсафаси. –Тошкент: Нишон-ношир, 2014.
19. Ruzmatova,G.M. (2023). Konfutsiychilik axloqiy negizlarda olamiy tartibot // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal. – 2023. 11-12-sonlar. – В. 916-923. / Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>.
20. Ruzmatova, G.M. (2024). Comparative studies of the Oriental and Western anthropology // ISJ Theoretical & Applied Science, 12 (128), 191-195. Philadelphia, USA / Soi: <http://s-o-i.org/1.1/TAS-12-128-13>.

